

## TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTIDA

### “ERASMUS+ ALMASHINUV AKADEMIK DASTURLARI” SEMINARI BOLIB O‘TDI



Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Erasmus+ milliy ofisi hamkorligida O‘zbekistonda **4-12 oktabr 2019 y. kunlari «Erasmus+ haftaligi»** o‘tkazilmoqda.

«Erasmus+ haftaligi»ning maqsadi – oliy ta’lim olishga qiziquvchi yoshlarni Erasmus+ dasturida individual tarzda ishtirok etish imkoniyatlari, loyihalarga hujjatlarni topshirish tartibi va shartlari haqida ma’lumotlar berishdan iborat. Shuningdek, Yoshlar uchun bir qator tadbirlar, bugungi kunda amalga oshirilayotgan Erasmus+ loyihalari uchun foto va videoko‘rgazmalar, radioviktorina va shu qatorda Erasmus+ dasturida qatnashish uchun qanday qilib muvaffaqiyatli loyihalar tayyorlash bo‘yicha mahorat-darslari bo‘lib o‘tadi.

«Erasmus+ haftaligi» doirasida **7 oktabr kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutida Erasmus+ kuni tashkil etildi va “ERASMUS+ almashinuv akademik dasturlari” mavzusida seminar bolib o‘tdi.**

Erasmus + kuni TKTI rektori professor **Sh.A.Mutalov** tomonidan ochib berildi. Rektor o‘z nutqida institutda amalga oshirayotgan keng qamrovli ishlar to‘g‘risida, professor-o‘qituvchi va talabalarning xalqaro akademik almashinuv dasturlarida ishtiroki xaqida ma’lumotlar berdi.



*Rasm. TKTI rektori prof.Sh.A.Mutalov, NEO eksperti K.Bahadirov ma’ruzasi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 07.10.2019 y.*

**NEO eksperti Kudrathon Bahadirov tomonidan** «Erasmus+ dasturining O'zbekistondagi faoliyati, CBHE, Jean Monnet, MSCA bo'yicha imkoniyatlar» xaqida taqdimot berildi va **NEO loyiha menejjeri Gulshoda Karlibaeva** «Erasmus+ dasturining individual ishtirokchilari uchun imkoniyatlar, Xalqaro kredit mobilligi (ICM), yo'nalishlari bo'yicha loyihalarni tayyorlash, ma'lumot olish va ishtirok etish» xaqida 40 dan ortiq tinglovchilarga ma'lumot berib o'tdi.

Tadbir davomida TKTi dan Erasmus+ dasturlari doirasida akademik almashinuv loyixalarida ishtirok etgan o'qituvchi Aziza Maqsudova va talaba Aziz Kamolov o'z tajribalari bilan fikr almashdilar.

**Aziza Maqsudova** almashinuv dasturida ishtirok etib, 04.05.2019 y.-12.05.2019 y. kunlari Ruminiyaning "1 dekabr 1918 Alba Yuliyasi universiteti"da "Atrof-muxit muxofazasi" fanidan talabalariga 8 soat dars berish bilan birgalikda, ushbu universitetda tashkil etilgan qator seminarlarda, "Staff week" xaftaligida xam faol ishtirok etib kelgan. **Prezentasiya (havola)**

Institutning "Sanoat ekologiyasi" kafedrasida Ruminiyaning "1 dekabr 1918 Alba Yuliyasi universiteti" bilan yaqin xamkorlik aloqalarini o'rnatgan, 09.04.2019-19.04.2019 y. kunlari ushbu universitet dotsenti BOGDAN DECEBAL MANOLI Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabalariga uchun "Ekologik xuquq" fanidan 10 soat dars o'tdi. Bunday tadbirlar institutda ta'lim sifatini ta'minlashga va yangi dasturlarni rivojlantirishga imkoniyat beradi.

2018-2019 o'quv yili davomida institutning 3 nafar talabasi, 4 nafar professor-o'qituvchisi Erasmus+ loyixalari doirasida almashinuv dasturlarda ishtirok etdi. Jumladan, Vest Timisoara Universitetida (Ruminiya) 14.02.2019-17.07.2019 y.y. kunlari "Sanoat iqtisodiyoti menejmenti" yo'nalishi talabasi Seytmetova Farangiz To'lqin qizi; Sileziya texnologiya universiteti (Polsha) 25.02.2019 - 06.07.2019 y.y. kunlari "Informatika, avtomatika va boshqaruv" yo'nalishi 2-kurs magistr talabasi Kamolov Azizbek Baxtiyor o'g'li; Chexiya tabiiy fanlar universitetida (Chexiya) 25.09.2018 - 15.02.2019 y. kunlari "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" yo'nalishi talabasi Abbosbek Ikrombekov bir semestr davomida muvoffaqiyatli o'qib keldi.



**Rasm. NEO loyiha menejjeri Gulshoda Karlibaeva va TKTi Xalqaro xamkorlik bo'limi boshlig'i Z.A.Babaxanova. Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 07.10.2019 y.**

**Kamolov Azizbek** o‘z ma‘ruzasida (*Prezentatsiyaga havola*) magistraturada o‘qish davomida Sileziya texnologiya universitetida akademik mobillik dasturida ishtirok etish tartibi, xujjatlarni rasmiylashtirish, Polshaga viza olish jarayoni xaqida batafsil ma‘lumot berib o‘tdi. Magistraturani a‘lo baxolarga bitirgan Kamolov Azizbek hozirda institutda “Informatika, avtomatika va boshqaruv” kafedrasida faoliyat olib bormoqda.



**Rasm. Azizbek Kamolov Polshada akademik almashinuv dasturida ishtirok bo‘yicha prezentatsiyasi (chap tomonda). Seminar tinglovchilari (o‘ng tomonda). Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 07.10.2019 y.**

Tadbir yakunida institutning Xalqaro xamkorlik bo‘limi boshlig‘i **Z.A.Babaxanova** tomonidan institutda amalga oshirilayotgan turli tadbirlar haqida taqdimot namoyon etildi. Institutning halqaro loyihalarda ishtiroki kengayib bormoqda va hozirgi kunda TKTI 72 xorijiy OTM bilan hamkorlik shartnomalar va memorandumlar imzolaganligi ta‘kidlandi, shu jumladan Evropa Ittifoqining (Ispaniya, Daniya, Ruminiya, Polsha) 7ta xorijiy OTMlari bilan akademik almashinuv KA-107 shartnomalari imzolangan.

2018 yil 58 nafar institut xodimlari, hamda 24 nafar talaba magistraturaga xorijiy OTMlarga malaka oshirish, stajirovka va o‘qishga yuborilgan bo‘lib, 2019 yilning 9 oy davomida (yanvar-oktabr) 45 nafar institut xodimlari va o‘qituvchilari, hamda 50 dan ortiq talaba xorijiy OTMlarda magistratura bosqichida (Ulsan universiteti, Sileziya texnologiya universiteti, KNITU maqsadli magistratura; TXTI-BGTU qo‘shma dasturi) ta‘lim olmoqda.

Tadbirda Toshkent kimyo-texnologiya instituti bakalavriat va magistratura talabalari, doktorant va professor o‘qituvchilar, hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari faol ishtirok etdi va Erasmus+ loyixalar doirasida xalqaro xamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha fikr almashdilar.